

BOLALAR VA KATTALARGA PARAZITLARIGA QARSHI SAMARALI SHAMCHA DORIVOR VOSITASINI ISHLAB CHIQRISH

To'ychiyev G'ofurjon O'rmonovich , Hakimova Oygul Sobitali qizi

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

E-mail: xakimovaoygul00@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.11.2025

Revised: 05.11.2025

Accepted: 06.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*mahalliy o'simliklar ,
dastarbosh, achchiq
ermon, oddiy
bo'ymodoron, dorivor
xususiyatlari,
farmakologik
xususiyatlari,
flavonoidlar,
alkaloidlar.*

Gijjalarga qarshi yurtimizda juda ko'plab dorilar mavjud, lekin hali shamcha ko'rinishidagi dori turini uchratmadim. Shamchalar asosan yo'g'on ichakdan yuborilib 20 daqiqada erib, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Gelmintlarga shamchalar to'liq natija bermasa ham 75 % natijaga erishish mumkin. Asosan Ostiritsa turidagi gijjalarni ko'p qismi anusda tuxum qo'yib usha yerda ko'payadi. O'ylaymanki kompleks davolash paytida tabletkalar va turli damlamalar bilan birga qo'llanilsa 100% samara beradi. Bu dori vositasi bilan ko'plab gijjalardan aziyat chekayotgan yosh bolalar va kattalarni davolash asosiy ko'zlagan maqsadim. Tabiiy dori vositasi uchun kerakli o'simliklarni sifatlisini tanlab olish va sifatli dori vositasi tayyorlash.

Kirish

Mintaqamizda parazitlarga qarshi juda ko'p harakatlar, turli dori vositalar ishlab chiqariladi lekin turli xil omillar natijasida batamom qutulib bo'lmaydi. Parazitlar asosan yosh bolalarda ko'p uchraydi, gigienaga rioya qilmaydigan shaxslarda, baliqchilarda ko'p uchraydi. Taxmin qilinishicha, dunyoda hayoti davomida biron marta gijja bilan kasallanmagan kishi mavjud emas. Bugungi kunda yer sayyorasi aholisining 24% yoxud 1.5 mlrd kishi gijjalar bilan kasallangan hisoblanadi.

Qo'llanilgan usullar: Bu vositani tayyorlashda achchiq ermon o'simligi, oddiy bo'ymadoron o'simligi, dastarbosh o'simligini tanlab olamiz. Ularni tarkibidagi ta'sir etuvchi moddani maksimal darajada quruq ekstraktini ajratib olamiz va asoslar bilan shamcha holiga keltiramiz.

Olingan natijalar: Bu dori vositasini ishlatgandan so'ng tahlil natijalarida eozinofillar miqdori 7- 6.5 darajadan 4 -4.5 tushganligini ko'rsatadi. Teridagi har hil dog'lar, psoriaz, toshмали belgilar pasayganini ko'rish mumkin. Ishtaxani tiklanishi xolsizlik charchoq asabiylikni bartaraf etish kuzatildi.

Muhokama: Biz ham dori vositamizni qanday ta'siri bo'yicha 5ta odamda tajriba o'tkazdik. Qon tahlili o'tkazib 10 kun davomida dorini berib ko'rdik. Natijalar samarali ekanligini ko'rsatdi.

O'simliklarni an'anaviy tibbiyotdagi qo'llanilishi

Dastarbosh o'simligi kimyoviy tarkibi bilan dorivor xususiyatlarga ega bo'lib, uning biologik faol moddalarini aniqlash xalq tabobatida va ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. O'simlikning asosiy faol komponentlari quyidagilar: Glikozidlar, smolalar, saponinlar, flavanoidlar, taninlar, minerallar va vitaminlar.

Achchiq ermon o'simligi o'z nomi bilan juda achchiq ta'mga ega. Poyasi va barglarida efir moyi, S va K vitaminlari, karotin, achchiq glikozidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Farmsanoatda gijjalarga qarshi ishlab chiqarilayotgan tabletkalar tarkibida ko'pincha shu o'simlikdan qo'llashadi.

Oddiy bo'ymodoron o'simligi ham achchiq ta'mga ega. Tarkibida efir moylari, alkaloidlar, va juda ko'p moddalar o'zida saqlaydi. Xalq tabobatida bo'ymodaron gulining kukunini asalga qorib yedirilib, gijjalarni tushirishgan. Biz ham gulidan substansya ajratib olib dori vositamizga qoshamiz.

Xulosa

So'nggi yillarda nafaqat vatanimizda balki butun dunyoda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda, turli kasalliklarni davolash, insonlarning immun tizimini mustahkamlashda tabiiy vositalar afzal ko'rilmogda. Biz ham Biz bu vositamizni sinab ko'rdik bu bilan biz ko'plab kelib chiqishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olishimiz mumkin. Ayniqsa Gijjalardan halos bo'lgan bolalar ishtaxaga kirib yaxshi ovqatlandi. Sog'lom turmush tarziga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O'simlikshunoslik.Toshkent 2018.
2. Xolisbekov J.K. Abduxomidov I.M. To'ychiyev M.M "Dorivor chilonjiydaning o'ziga xos shifobaxshlik xususiyatlarining xalq tabobatidagi ta'siri va qo'llanilishi"
3. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent 1995
4. Professor Ibrohimjon Asqarov "Tabobat qomusi" Toshkent 2019

